

Toshkent davlat yuridik universiteti:

Mamlakatimizda yuridik ta'limning vujudga kelish tarixi XX asr boshida Turkiston o'lkasida kechgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. 1918-yil 21-aprelda Turkiston xalq universiteti tashkil etilib, uning tarkibida sotsial-iqtisod fakulteti ham faoliyat yurita boshladi. Ayni fakultet tarkibidagi huquq bo'limi O'zbekistonda oliy yuridik ta'lim yo'lidagi dastlabki qadam bo'lgan edi. Ushbu fakultet 1921-yilda ijtimoiy fanlar fakultetiga aylantirildi. 1923-yilda fakultetni tamomlagan 71 nafar bitiruvchi iqtisod va huquq sohasi bo'yicha Turkiston davlat universitetida oliy ma'lumot olgan birinchi qaldirg'ochlar edi.

1924-yilda ijtimoiy fanlar fakulteti mahalliy xo'jalik va huquq fakultetiga aylantirildi hamda yurist kadrlarni tayyorlash hajmi sezilarli ortdi. 1928-yilga kelib esa mazkur fakultet "Sovet xo'jaligi va huquqi" deya qayta nomlandi. Fakultet professor-o'qituvchilari O'zbekistondagi yuridik muammolarni ilmiy-amaliy hal etish masalalarida bosh-qosh bo'lishdi.

1970 – 1980-yillar O'zbekistondagi yuridik ta'lim rivojida alohida bir davr bo'ldi. Aynan shu paytda Samarqand davlat universiteti qoshida yuridik fakultet (1974), Nukus davlat universitetining tarix fakulteti qoshida huquqshunoslik bo'limi (1977), O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida yuridik texnikum (1977) va Adliya vazirligi qoshida malaka oshirish kur-



yuridik ta’limning tarixi va buguni

si (1971) tashkil etilgani fikrlarimizning tasdig‘idir.

1990-yilgacha Toshkent davlat universiteti yuridik fakultetida uchta: kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘limlar faoliyat olib borgan. Agar 1921-yili Huquq institutini atigi 30 nafar talaba bitirgan bo‘lsa, 1980-yilning oxiriga qadar birgina ToshDU yuridik fakultetini 4 mingdan ziyod yosh bitirib chiqdi. 1921-yilda Huquq institutida 9 nafar professor-o‘qituvchi dars bergan bo‘lsa, 1989/1990-o‘quv yilida ularning soni 118 nafarni tashkil etgan.

1990-yilda O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining qaroriga asosan ToshDU qoshidagi yuridik fakultet negizida Toshkent davlat yuridik instituti tashkil qilindi. 1991-yil 15-avgustda Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra, Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat universitetidan ajralib chiqdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi 1990-qarori bilan Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat yuridik universitetiga aylantirildi. Mazkur qarorga muvofiq bu dargoh yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash bo‘yi-







cha bazaviy davlat oliy ta'lim va ilmiy pedagogik muassasasi etib belgilandi.

Shuni faxr bilan e'tirof etish kerakki, mazkur ilm dargohida ta'lim-tarbiya olgan, mehnat qilgan yuzlab mutaxassislar davlat va jamiyat boshqaruvining yuqori lavozimlarida ham halol va fidokorona xizmat qildi va qilmoqda. Ular orasida B.Mustafoyev, A.Azizxo'jayev, U.Tojixonov, N.Ismoilov, A.Saidov, N.Yo'ldoshev, P.Bobojonov, U.Mingboyev, M.Abdusalomov, U.Bozorov, M.Ikromov, E.Xalilov, B.Mavlonov nomlarini tilga olish o'rinlidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholining huquqiy savodxonligini oshirish, yuridik ta'lim sifatini tubdan yuksaltirish, buning uchun esa Toshkent davlat yuridik universiteti faoliyatini har tomonlama takomillashtirish masalasini shaxsan nazoratiga olgani sohada olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minladi. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 28-apreldagi "Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi, 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda 2020-yil 29-aprelda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda yuridik ta'limni rivojlantirish borasida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu qaror va farmonlarning ijrosini ta'minlash maqsadida universitetda qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.



TDYUda 2021/2022-o‘quv yilidan 5 ta fakultet, 19 ta kafedra va 2 ta chet el huquqi markazi faoliyat olib bormoqda. Professional kadrlarni tayyorlash va turli sohalarga malakali huquqshunoslarni yetkazib berish maqsadida qabul ko‘rsatkichlari 2021-yilda bakalavr bosqichida o‘tgan yilga nisbatan 1,5 baravar, magistratura bosqichida 21 foizga oshirildi. Bugungi kunda TDYUda jami 5611 nafar talaba (5370 nafari bakalavriat va 241 nafari magistratura) tahsil olmoqda.





distant.tsul.uz – shaffoflik va ochiqlik kafolati

TDYUda shaffoflikni ta’minlash maqsadida o‘quv jarayonlarini to‘liq elektronlashtirishni nazarda tutuvchi “Elektron universitet” (E-University) platformasi joriy etilgan. Bu orqali universitetda ochiq, shaffof, subyektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo‘lgan ta’lim muhiti yaratilgan.

Universitetda o‘quv jarayonini tashkil qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab MOODLE-obyektga yo‘naltirilgan dinamik ta’lim muhiti asosida distant.tsul.uz masofaviy ta’lim platformasi ishga tushirildi. Yakuniy nazoratlar o‘tkazilishining shaffofligi hamda ushbu jarayon ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlash maqsadida OAV va jamoatchilik vakillarining yakuniy nazoratlar jarayonini kuzatishi tashkil qilinib, imtihon jarayonlari kompyuter orqali ushbu masofaviy ta’lim platformasida maxsus jihozlangan auditoriyalarda o‘tkazilmoqda.



2020/2021-o‘quv yilidan boshlab TDYUda o‘quv jarayoni kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi – ECTS asosida tashkil qilindi.

Fan dasturlari (sillabuslar) xalqaro reytinglarda yuqori 300 talikda bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari tajribasi asosida 3 ta tilda (o‘zbek, rus, ingliz) tayyorlanib, o‘quv jarayoniga joriy etildi hamda “Huquq” davlat ta’lim standarti, 12 ta malaka talabi, 12 ta o‘quv rejasi, 178 ta o‘quv dasturi

(siyllabus) to'liq yangidan ishlab chiqildi. Yangi avlod adabiyotlari turkumida 35 ta darslik, 30 ta o'quv qo'llanmasi, 16 ta o'quv-uslubiy qo'llanma chop etildi. Xorijiy universitetlardagi olimlar bilan birgalikda 8 ta darslik tayyorlandi.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida nomutaxassislik fanlari ulushi 22 foizdan 10 foizga kamaytirildi.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida mustaqil ta'lim soatlari ulushi oshirildi, kelajakda egallaydigan kasbiga ixtisoslashuvi uchun talabalarga fanlarni tanlab o'qish imkoniyati yaratildi.



Universitetda Adliya vazirligi va nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari tajribasini o'rgangan holda professor-o'qituvchining ish samaradorligi ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini o'z ichiga qamrab olgan KPI tizimi joriy etilgan. Bundan tashqari, universitetda talabalarni xalqaro tajriba asosida raqobatbardosh kadr etib tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ishlar samarasi o'laroq, bugungi kunda ta'lim muassasasida 44 nafar xorijiy professor-o'qituvchi dars bermoqda. Ushbu ko'rsatkich 2019-yilda 5 nafarni, 2020-yilda 26 nafarni tashkil etgan. Xorijlik talabalar soni 2019-yilda 25 nafar, 2020-yilda 34, 2021-yil 36 nafarni tashkil etdi. Xorijiy OTMlar bilan akademik almashinuv doirasida 2019-yilda 4 nafar, 2020-yilda 7 nafar talaba xorijiy OTMlarda ta'lim olib kelgan.

Shu bilan birga universitetda talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, xorijiy tillarda darslarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada 2020/2021-o'quv yilida xorijiy tilda o'qitilayotgan fanlar soni 35 taga yetkazilib, ingliz tilida dars olib boriladigan 23 ta maxsus akademik guruh tashkil etildi.

16 nafar professor-o'qituvchi xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro'yxatdan joy olgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazdi.

Ayni paytda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 35 ta mutaxassislik va 5 ta nomutaxassislik fani xorijiy tilda o'qitilmoqda.

O'quv jarayonini bevosita amaliyot bilan bog'lash maqsadida Oliy sud, Bosh prokuratura (Bosh prokuratura akademiyasida), Ichki ishlar vazirligi (IIV malaka oshirish institutida) hamda Intellektual mulk agentligida amaliy huquqshunoslik kafedralari tashkil etildi.

Shuningdek, "Marketing.Tsul.Uz" – talabalar to'lov kontraktini elektron tarzda rasmiylashtirish bo'yicha axborot platformasi, "Degree.Tsul.Uz" – abituriyentlar tomonidan qo'shma ta'lim dasturlariga hujjatlar topshirish va ularni umumlashtirish bo'yicha axborot platformasi, "Job.Tsul.Uz" – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va prognozlash bo'yicha ma'lumotlar omborini shakllantiruvchi elektron tizim, "Topic.Tsul.Uz" – bitiruv malakaviy ish hamda magistrlik dissertatsiyalari mavzularini taklif etish, tanlash hamda ilmiy rahbarni biriktirish bo'yicha elektron platforma ishga tushirildi.

Qabul jarayonlarida talabalarning to'lov-kontrakt shartnomalarini olishda turli suiiste'molchiliklar, tanish-bilishchiliklar, g'araz niyatda bo'lgan fuqarolarga aldanib qolish holatlarining oldini olish maqsadida "Marketing.Tsul.Uz" - talabalar to'lov kontraktini elektron tarzda rasmiylashtirish bo'yicha axborot platformasi yaratilgan. Ushbu platforma orqali tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida to'lov shartnomalarini rasmiylashtirish uchun mobil telefon orqali onlayn ariza qoldirish hamda kontraktni rasmiylashtirish mumkin.

100 dan ortiq klub va to‘garak talabalar xizmatida

TDYUda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali tashkil etish, beshta muhim tashabbusni talabalarning harakat dasturiga aylantirish maqsadida 17 ta klub faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, yoshlarda sport bilan shug‘ullanishga qiziqishni oshirishga qaratilgan 8 ta klub ham faoliyat olib bormoqda. Klub va to‘garaklar faoliyatiga talabalarning 83,1 foizi qamrab olingan.

Har semestrda ikki marotaba tashkil etilayotgan “Talabalar festivali” yoshlarning adabiyot, san’at, musiqa va sport borasidagi iqtidorlarini yuzaga chiqarishga ko‘maklashmoqda.

O‘tgan 2021-yil davomida universitetda 41 ta ma’naviy-ma’rifiy tadbir, 23 marotaba uchrashuv va davra suhbatlari, 60 dan ortiq tanlov, 19 marta sport musobaqalari tashkil etildi. Ularga 5119 nafar talaba qamrab olingan. Bu esa talabalar umumiy sonining 91,2 foizini tashkil etadi.

Aholiga bepul huquqiy maslahat va tushuntirishlar berish maqsadida tashkil etilgan “Yosh yuristlar jamoat birlashmasi” va umumta’lim maktablarida turli huquqiy treninglarni olib borayotgan “Street Law” loyihasi a’zolari aholining huquqiy maslahatchilariga aylandi.

Talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb qilish, egallagan bilimlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan 41 ta ilmiy to‘garak va 37 ta ilmiy maktab faoliyati yo‘lga qo‘yilgani ham yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashmoqda.

Universitet iqtidorli talabalari uchun ta’sis etilgan Toshkent davlat yuridik universiteti stipendiyasi va ta’lim granti, Adliya vazirligi stipendiyasi, G‘afur G‘ulom nomidagi stipendiya va ko‘krak ni-









shoni yoshlar uchun munosib rag'bat bo'lib xizmat qilmoqda.

Universitet talabalari orasida 3 nafar Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori, 3 nafar davlat stipendiati, 11 nafar jahon chempioni, 23 nafar O'zbekiston chempioni, 2 nafar xalqaro va 3 nafar respublika fan olimpiadalari g'olibi, 4 nafar G'afur G'ulom nomidagi stipendiya sohibi, 8 nafar Adliya vazirligi stipendiyasi sohibi, 4 nafar universitet stipendiyasi sohibi hamda 4 nafar universitet ta'lim granti sohibi mavjud.

Aholining huquqiy savodxonligini oshirish uchun "Huquqiy shahar" loyihasi doirasida 20 ta risola tayyorlandi hamda mahalla va maktablarga bepul tarqatildi. Yuridik klinika orqali 2020 nafar fuqaroga yordam ko'rsatildi. Shu bilan birga aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilingan yangi qonunlar mazmun-mohiyatidan xabardorligini oshirish maqsadida joylarda 700 dan ortiq targ'ibot o'tkazildi, OAV orqali 400 dan ortiq chiqish qilindi.



















Xalqaro hamkorlik

Bugungi kunda Toshkent davlat yuridik universitetida xalqaro reytinglarga kirish, xorijiy tajribani o‘rganish, hamkorlik aloqalarini kengaytirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlarning samarasi o‘laroq, universitet ayni paytga qadar 62 ta, shulardan 53 ta xorijiy oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasi hamda 9 ta xalqaro va xorijiy tashkilot bilan shartnoma, kelishuv va memorandumlar imzoladi.

6 ta xorijiy sherik-universitet bilan hamkorlikda 11 ta qo‘shma ta’lim dasturi (double degree), jumladan 1 ta texnikumlar darajasida, 7 ta bakalavriat bosqichida hamda 3 ta magistratura bosqichida qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgani, so‘nggi bir yil ichida TDYU professor-o‘qituvchilari muallifligidagi 76 ta maqola Scopus va Web of Science kabi ilmiy bazalarda o‘rin olgan jurnallarda chop etilgani, akademik mobillik borasida 57 nafar professor-o‘qituvchi xorijiy mamlakatlarga stajirovka va xizmat safarlariga yuborilgani hamda xalqaro tadbirlarda ishtirok etgani ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar natijasidir.

Xorijiy talabalar soni 2019-yilda 25 nafar, 2020-yilda 34, 2021-yil 36 nafarni tashkil etdi. 2020/2021-o‘quv yilida xorijiy tilda o‘qitilayotgan mutaxassislik fanlari soni 35 taga yetkazilib, ingliz tilida dars mashg‘ulotlari olib boriladigan 23 ta maxsus akademik guruh tashkil etildi.

TDYUning xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar hisoblangan QS (Quacquarelli Symonds World University Rankings), THE (Times Nigher Education) veb sahifalarida profillari ochildi.

Universitet 2021-yilda Times Higher Education (THE)ning High Impact Ranking reytingida ishtirok etishi bo‘yicha kelishuvga erishib, unda 401-o‘rinni egalladi.

Bundan tashqari, M.Narikbayev nomidagi Qozog‘iston davlat yuridik universiteti va Belarus Respublikasining Yanka Kupala nomidagi Grodno davlat universiteti bilan “Xalqaro huquq” ixtisosligi bo‘yicha shartnoma imzolandi. Ayni paytda 33 nafar talaba Grodno davlat universitetida, 52 nafar talaba Qozog‘iston davlat yuridik universitetida ta’lim olmoqda.

Xorijiy OTMlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 25 ta xalqaro konferensiya, davra suhbatlari va seminar-treninglar o‘tkazildi.

Xorijiy tashkilotlar, ya’ni GIZ, Regoinal dialog, DAAD, KOICA va Fulbright dasturlarida jami 7 marta ishtirok etildi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali TDYU xodimlaridan 4 nafari magistraturada o‘qish uchun xorijga yuborildi.

TDYU Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU), Xalqaro yuridik maktablar assotsiatsiyasi (International Association of Law Schools – IALS) va Yevropa huquq fakultetlari assotsiatsiyasi (European Law Faculties Association – ELFA), Xalqaro universitetlar uyushmasi (Observatory Magna Charta Universitatum) va Yevropa oliy ta’lim muassasalari assotsiatsiyasi (European Association of Institutions in Higher Education – EURASHE)ning to‘laqonli a’zoligiga qabul qilindi.

Niderlandiya qirolligining “Grotius Chambers” xalqaro advokatlik firmasi bilan o‘zaro aloqalarni yanada mustahkamlash va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida hamkorlik memorandumi loyihasi imzolandi va ushbu hamkorlik







doirasida talabalarga ilk matoraba xalqaro tashkilotlarda stajirovka o'tash imkoniyati yaratib berildi. 2021-yildan boshlab TDYU talabalari uchun "Xalqaro yuridik konsalting firmasini ochish" tartibini o'rgatuvchi maxsus kurs joriy etish rejalashtirilgan.

2020-yil noyabr oyidan Germaniyaning Regensburg universiteti bilan hamkorlikda TDYUda Nemis huquqi markazi ishga tushirildi hamda markazda o'quv mashg'ulotlari onlayn tarzda boshlangan.

TDYU Nippon dasturi orqali ARMga yapon mualliflarining 100 dan ortiq ingliz tilidagi kitoblarini olish bo'yicha dasturda g'olib bo'lgan.

Shuningdek, TDYU talabalari 2020/2021-o'quv yili davomida 2 ta xalqaro tashkilot grantini qo'lga kiritishdi. Universitet talabalarining 35 ta xalqaro tanlovda ishtiroki ta'minlandi.

2 marta AQSHning tijorat huquqi taraqqiyot dasturi (CLDP) tajribali huquqshunoslari va "White & Case" LLP xalqaro advokatlari ishtirokida TDYU talabalariga trening va master klasslar tashkil etildi.

Xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 2021-yil davomida 3 marta talabalar bilan uchrashuv hamda master klasslar tashkil etildi. TDYU tomonidan "TDYU ekspertlar kengashi" tuzilib, guruh tarkibi 25 nafar vatandoshimizdan iborat etib belgilandi.





Ilmiy-innovatsion soha – nazariya va amaliyot uyg'unligi

Universitet huzurida 13 ta ixtisoslik bo'yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashlar tuzilib, faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda ilmiy salohiyat ko'rsatkichi 46,4 foizni tashkil etmoqda. Universitet professor-o'qituvchilarining 2019-yilda 15 nafari, 2020-yilda 33 nafari, 2021-yilda 55 nafari ilmiy daraja va ilmiy unvonlarga ega bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, davlat boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida tashkil etilgan turli ekspertlar guruhlarida universitetning 30 nafardan ortiq professor-o'qituvchisi faoliyat yuritmoqda.

Magistrantlar uchun fan sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkilotlarning takliflarini o'rganish orqali tadqiqot mavzulari bazasini shakllantirish amaliyoti joriy qilindi.

Talabalarning ilmiy tadqiqot sohasidagi qiziqishlarini oshirish maqsadida 37 ta ilmiy maktab va 41 ta ilmiy to'garak tashkil etildi. Ilm-fan va ta'limning uzviyligini ta'minlash mexanizmi yaratildi.

Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi yoshlarni birlashtirish, ularni ilmiy tadqiqotga tizimli asosda yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirish maqsadida "Yosh olimlar klubi" (Young Scholars Club) tashkil etildi.

Scopus va Web of Science kabi ilmiy bazalarda indekslanadigan ilmiy jurnallarda universitet professor-o'qituvchilari muallifligida 2019-yilda 19 ta, 2020-yilda esa 56 ta maqola chop etildi. 2021-yilda 129 ta monografiya chop etildi.



Universitetning “Yuridik fanlar axborotnomasi” jurnali RINTS (E-library) va Cyberleninka (cyberleninka.ru) ma’lumotlar bazasiga joylashtirilgan bo‘lib, ushbu jurnalda chop etilgan barcha maqolalar uchun DOI raqam olingan hamda jurnal yetakchi ilmiy bazalar (RINTS, DOI, Cyberleninka) ga kiritildi.

Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2019-yilda 230 ta maqola, 2020-yilda 336 ta maqola, 2021-yilda esa 380 ta maqola chop etildi.

Universitetda yangi “Yurisprudensiya” ilmiy-amaliy jurnali va “TSUL Legal Report” – huquqshunoslik sohasida ingliz tilida chop etiladigan yangi va innovatsion turdagi elektron xalqaro ilmiy jurnali faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2021-yilda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning ilmiy asoslarini tadqiq etish natijalarini chop etish, ilm va amaliyot integratsiyasini ta’minlashga mo‘ljallangan universitet muassisligidagi “Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali ta’sis etildi.

TDYU 2021-yilda Times Higher Education (THE)ning High Impact Ranking reytingida ishtirok etish uchun 7 ta yo‘nalish bo‘yicha ariza taqdim etdi. Va natijada Buyuk Britaniyaning Times Higher Education tashkilotining 2021-yilgi THE Impact Ranking reytingi natijalariga ko‘ra Toshkent davlat yuridik universiteti TOP-500 universitet ro‘yxatidan joy oldi.

Bundan tashqari “Universitas Indonesia”ning dunyo universitetlarida Yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq holat va siyosat bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijalarini taqdim etuvchi reytingida 496-o‘rinni egalladi.

Ilmiy-innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish sohasida sezilarli o‘sish kuzatildi. Jumladan, 2021-yilda jami 35 ta xo‘jalik shartnomasi hamda BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP) bilan hamkorlikdagi loyihalar doirasida 4 ta shartnoma tuzilgan bo‘lib, mazkur shartnomalar natijasida universitet hisobraqamiga jami 163,1 mln so‘m pul tushdi.

Shu bilan birga, Hindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi qoshidagi Lal Bahodur Shastri markazi tomonidan TDYUga Hindiston konstitutsiyasini o‘zbek tiliga tarjima qilish va chop etish uchun 88,6 mln. so‘mlik grant ajratildi.

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) tomonidan “Markaziy Osiyoda huquqiy davlatchilikni rivojlantirish yo‘lida hamkorlik” dasturi orqali grant asosida universitetning Ma’muriy va moliya huquqi kafedrasiga 25,8 mln so‘mlik 100 nusxa kitob taqdim etildi.

Shuningdek, 2021-yilning 7-dekabrida BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP) bilan 99,8 mln so‘mlik shartnoma imzolangan bo‘lib, bugungi kunda mazkur loyiha amalga oshirilish jarayonidadir.

Davlat grantlari tanlovida ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligiga 16 ta grant loyihasi topshirilgan. Shu bilan birga, Oliy Majlis Senatining topshirig‘iga muvofiq 4 ta grant loyihasi tayyorlanib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga yuborilgan.

Bundan tashqari, Innovatsion rivojlanish vazirligiga tanlov e'lon qilish uchun taklif sifatida yuborilgan 4 ta grant mavzulari ma’qullanib, ulardan ikkitasi amaliy va innovatsion loyihalar tanlovining 55-turida e'lon qilindi. Shuningdek, 9 ta xorijiy grant loyihasi ustida ish olib borilgan bo‘lib, mazkur loyihalarning jami qiymati 233 ming AQSH dollaridan ortiq.

Yangi ishlanmalarni joriy qilish hamda tijoratlashtirish maqsadida “Legal Tech” laboratoriyasi tomonidan “Huquqiy shahar” veb-platformasi va mobil ilovasi, yuridik tarjimalarni amalga oshiruvchi byuro faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha “Scientific Translations” platformasi, axborot-resurs markazi faoliyatini tijoratlashtirishga qaratilgan “Scientific Library” platformasi, yuridik xizmatlarning yagona reestrini shakllantirish bo‘yicha “AdLex” loyihasi, talabalar uchun universitet xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha “TSUL Guide” navigator loyihasi amalga oshirilib, yangi innovatsion ishlanmalar yaratildi.

Bir so‘z bilan aytganda, amalga oshirilgan islohotlar, chora-tadbirlar natijasida Toshkent davlat yuridik universiteti mamlakatimizda yuridik ta’lim sohasida yetakchi va bazaviy oliy ta’lim muassasasiga aylandi.

Akbar TOSHQULOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist,
1-darajali adliya maslahatchisi